

10-dars. Ikki xonali songa ko'paytirish



1. Tushirib qoldirilgan sonlarni toping.

ko'paytuvchi	80	?	40	?	?	30	?
ko'paytuvchi	12	7	?	70	15	?	60
ko'paytma	?	840	560	490	150	2 100	420

bo'linuvchi	96	?	160	?	750	5 600	?
bo'luvchi	6	11	?	5	15	70	40
bo'linma	?	9	8	400	?	?	90



2. Ifodalarning qiymatini **ko'paytirishning taqsimot xossasidan** foydalanib hisoblang.

a) $97 \cdot 65$

d) $136 \cdot 52$

f) $285 \cdot 23$

b) $43 \cdot 11$

e) $906 \cdot 15$

g) $307 \cdot 41$



3. Tenglamalarni yeching.

a) $a + 2\,245 = 326 \cdot 18$

b) $a : 13 + 47 = 372$



4. **Ifodalarni** yozing va ularning qiymatini **qulay usulda** hisoblang.

a) 319, 975 va 181 sonlarini qo'shish.

b) 983 sonidan 168 va 183 sonlari yig'indisini ayirish.

d) 378 va 167 sonlari yig'indisidan 268 sonini ayirish.

e) 42 sonini 256 va 144 sonlari yig'indisiga ko'paytirish.



5. Ifodalarning qiymatini **hisoblamasdan**, ularni taqqoslang.

a) $384 \cdot 25$ ☐ $384 \cdot 23$

d) $972 \cdot 25$ ☐ $729 \cdot 25$

b) $624 \cdot 36$ ☐ $642 \cdot 36$

e) $945 \cdot 74$ ☐ $945 \cdot 47$



6. Sayyohlik bazasida chodirlarda ham, kottejlarda ham yashash mumkin. Rasmga qarab sayyohlar haqida masala tuzing va uni yeching.


			jami
avgustda	280	170	?
sentabrda	?, 8 marta kam	?, 2 marta kam	?



7. Masalalarga doir **ifodalar** tuzing.
- a) Mansur x yoshda, Sardor esa undan 6 yosh katta. Sardor Mansurdan necha marta katta?
- b) Buvi a yoshda, nabirasi esa undan 5 marta kichik. Buvi nabirasidan necha yosh katta?
- d) Sevara, Diyora va Azizaning jami yoshi y yosh. Sevara n yoshda, Diyora esa Sevaradan 2 marta kichik. Aziza necha yoshda?



8. To'g'ri to'rtburchak shaklidagi yer maydonining **yuzini** berilgan o'lchamlar bo'yicha toping. Bu masalani necha xil usulda yechish mumkin?



9. Ifodalarning qiymatini toping.
- a) $12\,348 - 127 \cdot 45 + 25 \cdot (983 - 485)$
- b) $44\,245 + 9\,365 : 5 \cdot 24 - 55\,205$

10. Ikki kunda bog'ga 800 nafar kattalar va 1 200 nafar bolalar tashrif buyurishdi. Agar har kuni bog'ga tashrif buyuruvchilar soni bir xil bo'lsa, 7 kunda bog'ga jami necha kishi tashrif buyuradi?

